

6-sinf adabiyot

4-CHSB

II variant

1.(B – 2). Rahmat Fayziy hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.

A) Yozuvchining “Yaxshilik” asarida Ikkinchiji jahon urushi paytidagi xalqimiz hayoti hikoya qilinadi.

B) “Hazrati inson” romanida Shoahmad ota va Bahri aya singari kishilar haqida hikoya qilinadi.

C) Ijodkor qalamiga mansub “Dunyolar kurashi” ilmiy-fantastik romanida urushning insoniyatga olib kelgan salbiy oqibatlari yoritib berilgan.

D) Adib AQSHda nashr etilgan jahonning eng yetuk fantast yozuvchilari haqidagi adabiy ensiklopediyaga uning nomi ham kiritilgan.

2.(B – 2). Berilgan parchada qo‘llangan badiiy tasvir vositasini toping.

Onadek ko‘rgaymiz seni, O‘zbekiston,

Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

A) metafora

B) jonlantirish

C) sifatlash

D) o‘xshatish

3.(B – 2). Ibroyim Yusupov hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.

A) Ilk asari “Vatanim” deya nomlagan ijodkor, Qoraqalpog‘iston davlat madhiyasi muallifi ham hisoblanadi.

B) Shoir “Qadrdon so‘qmoqlar” she’riga “Osmon yiroq – yer qattiq” maqolini epigraf sifatida qo‘llaydi.

C) Ilk asari “Qushcha” deb nomlangan, O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi ham hisoblanadi.

D) Umrining so‘ngida yaratgan “Yodgorlik” to‘plami uchun Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.

4.(B – 2). Oskar Uayld hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.

A) U ziyorilar oilasida tug‘ilgan bo‘lib, otasi shifokor, onasi esa shoira edi.

B) Ingliz yozuvchilari orasida birinchi bo‘lib nufuzli Nobel mukofotini olgan adib.

C) “Ko‘rinmas odam”, “Dunyolar jangi” romanlari bilan mashhur bo‘lgan yozuvchi.

D) O’n besh yoshli farzandining tug‘ilgan kuniga atab “Yulduz bola” romanini yozgan.

5.(Q – 2,8). “Hazrati inson” romani voqealari yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Galya yo‘qolgan singlisini topib berishni va’da qilgani uchun Mahkam aka bilan ketishga rozi bo‘ladi.

B) Vitya ko‘chadagi bolalar bilan har kuni janjallashgani sababli Mahkam aka uni bolalar uyiga qaytarib berishga majbur bo‘ladi.

C) Galyaning iltimosiga ko‘ra Mahkam aka Abramni o‘g‘il sifatida o‘zining oilasiga qabul qiladi.

D) Abram to‘qqiz kun oldin oldin uni olib ketgan er-xotinning uyida qochib ketganligi uchun bolalar uni do‘pposlaydi.

6.(Q – 2,8). “Hazrati inson” romani qahramoni Vitya obraziga oid to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Yosh bo‘lishiga qaramasdan oilasini boqish uchun mahallada pochtachilik qilgan bola.

B) Yo‘qolgan singlisi topish uchun bolalar uyidan qochib ketgan bola.

C) Mahkam aka uni farzand qilib olgach, Galyani ham olib ketishni iltimos qilgan bola.

D) Dadam bor deb maqtanishi tufayli bolalarga yoqmagan va ulardan kaltak yegan bola.

7.(Q – 2,8). “Hazrati inson” romanidagi nutqlarni obrazlari bilan to‘g‘ri moslashtiring.

1. “O‘g‘il bolami yo qizcha olmoqchimisiz? Yoshroq bo‘lsinmi yo eslikrog‘imi?”

2. “Mahkam otamni ovora qilmang, shu yerda mana bu ikkovini yozib oling, hujjatlarini keyin o‘zim uylariga eltib beraman”.

3. “– Amaki, – dedi shirinlik so‘rab erkalik qilganday boshini egib, – Abramni ham olib keta qolaylik, o‘zi judayam yaxshi bola”.

4. “Bu yog‘ini o‘ylamang. Dunyodan nima olib ketamiz?.. Zarur bo‘lsa, hech tortinmay biznikiga yuboravering”.

5. “– Tush endi, dadamni charchatib qo‘ysan”.

a – Sanobar; b – Mahkam aka; c – Nazarova; d – Galya; e – Vitya.

A) 1 – c, 2 – a, 3 – d, 4 – b, 5 – e.

B) 1 – a, 2 – c, 3 – e, 4 – b, 5 – d.

C) 1 – a, 2 – c, 3 – d, 4 – b, 5 – e.

D) 1 – b, 2 – a, 3 – e, 4 – c, 5 – d.

8.(Q – 2,8). Ibroyim Yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” she’ri haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Bolaligida shirin damlarni yodga olib, “shu kunlarda bahorga zorman” kabi misralarni bitadi.

B) Atrofini o‘rab turgan purviqor qorli tog‘larni bo‘g‘ma ajdarga o‘xshatadi, ko‘mko‘k maysalarni esa yashil gilamga qiyoslaydi.

C) Bolaligini xotirlar ekan, hatto qiyshiq so‘qmoqlarning ham dilga juda yaqin ekanligini o‘tli misralar bilan ifoda etadi.

D) Yurtining chiroyliligini yosh kelunga, hududidan oqib o‘tuvchi ikki daryoni kelinchakning kokiliga o‘xshatadi.

9.(Q – 2,8). Xurshid Davronning “Vatan devorlari” she’ri haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Ushbu she’rda tarixda o‘z nomlarini qoldirish uchun yuksak binolar qurgan o‘n ikki me’mor haqida hikoya qilinadi.

B) Vatanni faqat o‘zimiz uchun emas, balki kelajak avlodlarimiz, farzandlarimiz uchun ham asrab-avaylashimiz zarurligi g‘oyasi aks etgan.

C) Ulkan me'moriy obidalarning kundan kunga chiroy ochib borayotgani, yurt chiroyiga chiroy qo'shayotgani ifoda etilgan.

D) Yurtini yovdan himoya qilishda ko'ksi qalqon bo'lgan mard o'g'lonlar Shiroq va Jaloliddin Manguberdi himoya qiluvchi devorga qiyoslangan.

10.(Q – 2,8). "Baxtli shahzoda" ertagi voqealari yuzasidan berilgan NOto'g'ri hukmni aniqlang.

A) Haykalni otashdonda eritib yuborishganidan so'ng, Hokim Shahar Kengashini chaqirib, metalni nima qilish xususida maslahat soladi.

B) Baxtli Shahzoda tirikligida dunyo bo'y lab qilgan sayohati Misr ehromlari, issiq cho'llar, timsohlar haqida Qaldirg'ochga gapirib beradi.

C) Qushshunos Olim qish faslida qaldirg'ochni uchratgach, buning g'aroyib hodisa ekanligini ta'kidlaydi.

D) Qaldirg'och biror narsa haqida bosh qotirishni boshlasa, darhol uni uyqu elita boshlar va birpasda uxlab qolar edi.

11.(Q – 2,8). "Baxtli shahzoda" ertagidagi nutqlarni obrazlari bilan to'g'ri moslashtiring.

1. "- U endi go'zallikdan butunlay mahrum! – der edi universitetda".

2. "- Ajabo, bu singan qalay yurakni otashdonda eritib bo'lmayapti-ku! – dedi u".

3. "- Undan yangi haykal yasash lozim va u albatta mening haykalim bo'lishi kerak! – deb taklif kiritdi u".

4. "- To'ppa-to'g'ri, tilanchidan ham besh badtar! "

a – Po'lat Quyuvchilar Boshlig'i; b – Estetika Professori; c – Shahar maslahatchilari;

d – Hokim.

A) 1 – b, 2 – a, 3 – c, 4 – d.

B) 1 – a, 2 – d, 3 – b, 4 – c.

C) 1 – c, 2 – b, 3 – a, 4 – d.

D) 1 – d, 2 – c, 3 – a, 4 – b.

12.(Q – 2,8). "Baxtli shahzoda" ertagi voqealari haqidagi NOto'g'ri hukmni toping.

A) Chevar ayol Qirolichaning eng sohibjamol dugonasining navbatdagi saroy bazmiga atab tiktirayotgan ipak ko'ylagiga gul chatishi keltirilgan.

B) Baxtli Shahzodaning ko'zлari ming yil muqaddam olis Hindistondan keltirilgan g'oyat noyob zabarjadlardan yasalgan edi.

C) Gugurtfurush qizcha gugurtlarni suvga tushirib yuborgach, otasidan qo'rqib maydon chetida yig'lab o'tiradi.

D) Qaldirg'och o'lgach, Baxtli Shahzodaning sof tilladan yasalgan yuragi ham sinib tushadi.

13.(Q – 2,8). Usmon Azim she'ri tahlili haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

A) Yomg'irdan keyingi tabiatni tasvirlar ekan: "Nafarmon bulutlar yig'di etagin" misralarini bitadi.

B) Bolaligi o'tgan, mol boqqan o'tloq dalalarining paxtazorga aylanganini afsus bilan tilga oladi.

C) Ona tili muqaddas ekanligi, agar u bo'lmasa to'tining qismati boshiga tushishidan hadiksirashi aks etgan.

D) Mirzo Ulug‘bek fojiasini tilga olar ekan: “Padarkushdan pana qilib, Ulug‘beging quchgayman” misralarini yozgan.

14.(Q – 2,8). Omon Matjon she’ri tahlili haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Yov bayrog‘ini changallab tog‘lar orasida bejon yotgan mard o‘g‘lon haqida hikoya qilingan.

B) Vatanning ne ekanligini qirlardan, bog‘lardan, mahallasidan o‘rganganligini aytgan shoir yurtini “Vatanjon” deb erkayaldi.

C) Bilmay bosib chumolini gunohiga so‘roq bergani, Vatanni nima deganlarga bir kaft tuproq bergenini bayon qilgan.

D) Turnalarning yurtga qaytib kelayotganini tasvirlagan shoir osmon sog‘inch kabi poyonsizligini, rangining yashil ekanligini ifodalab bergen.

15. (M – 4). “Hazrati inson” hikoyasidan olingan parcha NOto‘g‘ri tahlil qilingan javobni aniqlang.

“Usti qalinroq bolalar issiqdan burqsib, kiyimlarini yechib yerga tashlagan, eslilari qo‘llarida ushlab turardi. Yoqasi qolsa ham, beqasam, deyilganidek, duch kelgan narsani ilib olishgan, birontasining egnidagini kiyim qatoriga qo‘shib bo‘lmasdi”.

A) Berilgan parcha orqali yozuvchi urush davridagi qiyinchiliklarni, yo‘qchilikni ko‘rsatib bergen.

B) Bolalarning ota-onalari yo‘q, yetim ekanliklari, ularning yurish-turishidan tashvishlanadigan va e’tibor qaratadigan insonlari yo‘qligi aks etgan.

C) U davrda eng muhimi – jon saqlash, omon qolish bo‘lgani uchun bolalar topganini kiyib ketaverishgani tasvirlangan.

D) Urush davri bo‘lsa-da, barcha bolalarda beqasam chiroyli to‘nlar borligi, faqat issiq tufayli kiyimlarini yechib tashlashgani bayon qilingan.